

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko‘ra, 2021 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) hajmi 11 313,1 mldr. so‘mni tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 106,5 foizga o‘sdi.


YaHM deflyator indeksi 2021 yil yanvar-iyundagi narxlarga nisbatan 116,8 foizni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaHMning shakllanishida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qo‘sghan hissasi 3,6 foizga yetdi.

### Yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	<i>mlrd.so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda</i>
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>9 099,6</b>	<b>11 313,1</b>	<b>106,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	8 507,2	10 244,4	106,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	592,4	1 068,7	106,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>8 507,2</b>	<b>10 244,4</b>	<b>106,5</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1 606,3	1 883,0	100,4
Sanoat (qurilishni qo‘sghan holda)	3 354,1	4 182,4	109,3
sanoat	2 554,7	3 201,7	107,2
qurilish	799,4	980,7	116,1
xizmatlar	3 546,8	4 179,0	106,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	463,5	554,0	107,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	540,1	652,6	112,6
boshqa xizmatlar	2 543,2	2 972,4	105,2

Hisobot davrida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 5 868,1 ming so'mni tashkil etib va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 90,6 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,4 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 18,4 % ni, sanoat tarmog'i 31,3 % ni, qurilish 9,6 % ni va xizmatlar tarmog'i 40,7 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi,  
jamiga nisbatan foiz hisobida**


	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	93,5	90,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6,5	9,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	18,9	18,4
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	39,4	40,9
	sanoat	30,0	31,3
	qurilish	9,4	9,6
	xizmatlar	41,7	40,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5,4	5,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	6,3	6,4
	boshqa xizmatlar	30,0	28,9

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**




**2020 yil yanvar-iyun**



**2021 yil yanvar-iyun**




YaHMning o'sishi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlardagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 100,4 foizni (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 18,4 %), sanoatda 107,2 foizni (31,3 %), qurilishda 116,6 foizni (9,6 %) va xizmatlar sohasida 106,6 % ni (40,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,1 foizni (5,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,6 foizni (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,2 foizni (28,9 %) tashkil etdi.



2021-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyator indeksi 2020-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 116,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 116,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 116,7 % qayd etildi.

 **Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



 **Yanvar-iyun oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi**  
(jamiga nisbatan % da)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi 49,9 % ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-iyunda – 50,4 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi pasayishi yirik korxonalar ulushining kamayishi o'sishi bilan izohlanadi.